

## O'ZBEK ORKESTRINING SHAKLLANISH SHART-SHAROITI

**Annotatsiya:** O'zbek orkestrining shakllanishi va rivojlanishining tarixiy shart-sharoitlari O'zbekistonning musiqa madaniyati, xalqlarining musiqiy an'analari va milliy orkestr ijrochiligi kontekstida o'rganilishi kerak. Ularning shakllanishi asosan XX asrning boshlariga, ayniqsa, mustaqillik davriga to'g'ri keladi. O'zbek orkestri shakllanishining asosiy bosqichlari o'lkadagi turli musiqiy yo'nalishlar, milliy va g'arb musiqasi, musiqa ta'limi va jahon musiqiy madaniyatiga ta'sir etuvchi jarayonlar bilan chambarchas bog'liq.

**Tayanch iboralar:** Chertib ijro etiladigan torli cholg'ulardan qashqar rubobining yuqori registrli yangi turi – rubob prima hamda takomillashgan chang kiradi. Deyarli o'zgarishsiz qolgan xalq cholg'ulari esa afg'on rubobi, puflab ijro etiladigan cholg'ular – nay, qo'shnay va urma zarbli cholg'ularning deyarli hammasi qo'llaniladi.

**Аннотация:** Исторические условия становления и развития узбекского оркестра следует изучать в контексте музыкальной культуры Узбекистана, музыкальных традиций его народов, исполнительского мастерства национального оркестра. Их формирование в основном относится к началу 20 века, особенно к периоду независимости. Основные этапы становления узбекского оркестра тесно связаны с различными музыкальными течениями в стране, национальной и западной музыкой, музыкальным образованием, процессами, затрагивающими мировую музыкальную культуру.

**Основные фразы:** К струнным инструментам, на которых играют ударными, относятся новый высокорегистровый вид кашкара рубоба - рубоб prima и улучшенный чан. Что касается практически неизменных народных инструментов, то используются почти все афганские рубоби, духовые инструменты - флейта, кошнай и ударные инструменты.

Orkestr tasviriy vositalarini boyitishi, uning ijrochilik imkoniyatlarini ma'lum darajada cheklangan qobiqdan olib chiqish, uning diapazonini kengaytirish, registrlar muvozanatini ta'minlash muammolari tug'ila boshlandi. Mana shu munosabat bilan ham musiqiy cholg'ular yasashda, ularni temperatsiyalangan xromatik tovushqator bilan ta'minlashga kiritiladi. Avvalo, ayrim o'zbek sozandarlari - To'xtasin Jalilov, Shorahim Shoumarov hamda sozgar usta Usmon Zufarov o'zbek cholg'ularining yangi turlarini - katta g'ijjak, rubobning yangi turlari va boshqa cholg'ularni yaratishadi. Chertib ijro etiladigan cholg'ular pardalari orasiga sozandalar qo'shimcha pardalar bog'lab, ularga xromatik tus berishadi, milliy musiqa cholg'ularining ovozini kuchaytirish uchun turli tajribalar o'tkaziladi, soddalashtirish, moslashtirish va qayta ishlash ishlari olib boriladi, cholg'ular qopqog'i o'zgartiriladi hamda shunga o'xshab yangiliklar izlanadi. Bu izlanishlar o'sha davr oldinga surayotgan ijodiy vazifalarni aks sadosi sifatida milliy unison orkestrdagi o'zbek sozandarlari orasida tug'iladi. Bunday tajribalar, o'z navbatida, cholg'ularni rekonstruksiya qilish bilan shug'ullanadigan maxsus laboratoriyaning vujudga kelishiga asos bo'ldi.

1934-yilda Ashot Ivanovich Petrosyan boshchiligida tuzilgan bu laboratoriyaga o‘zbek ustalari jalb etildi. Laboratoriyaning asosiy vazifasi bir me’yorda temperatsiyalashtirilgan xromatik tovushqatorga ega bo‘lgan va tovushi oldingisirikidan kuchliroq bo‘lgan cholg‘ulari tayyorlashdan iborat edi.

Laboratoriyada yasalgan eksperimental cholg‘ulari mavjud unison orkestrlaridagi sozandalar ijrosida sinab ko‘rilardi.

1938-yilda filarmoniya etnografik katta ansambl negizida shakllangan N.Mironov rahbarligidagi “Nota orkestri” alohida jamoa sifatida ajratilib, uncha katta bo‘lmagan 24 kishidan iborat yangi ijrochi jamoa tuziladi. Asta-sekin uning tarkibi dirijyor A.I.Petrosyan rahbarligida kengaya boradi va 1939-yil oxirlariga borib, u rekonstruksiya qilingan cholg‘u namunalaridan anchasini o‘ziga qamrab oladi. Jumladan, torli cholg‘ular kvinteti – ikkita milliy g‘ijjak bilan bir qatorda uning yangi yasalgan turlari - g‘ijjak alt, g‘ijjak bas va kontrabas g‘ijjakdan iborat edi.

Chertib ijro etiladigan torli cholg‘ulardan qashqar rubobining yuqori registrlil yangi turi – rubob prima hamda takomillashgan chang kiradi. Deyarli o‘zgarishsiz qolgan xalq cholg‘ulari esa afg‘on rubobi, puflab ijro etiladigan cholg‘ular – nay, qo‘shnay va urma zarbli cholg‘ularning deyarli hammasi qo‘llaniladi. Rivojlanish davrini o‘rganib Evropa cholg‘u imkoniyatlari hamda taniqli rus xalq orkestri asoschisi V.V.Andreyevning ishidan ijodiy foydalanib, 12-pog‘onali temperatsiya tovushqatori asosida cholg‘ular oilasi yaratiladi. Doimiy o‘zgarishlar izlanishlar ta’sirida orkestr tarkibi tobora o‘zgarib borardi. Eng muhimi, rekonstruksiya qilingan cholg‘ulardan iborat o‘zbek milliy orkestrini yaratish edi.

Tinimsiz ijodiy izlanishlar kutilgan natijalarni bergach, u turli orkestr va ansambllar yaratishga ham yo‘l ochib beradi. Cholg‘u musiqasi janrlari ham umum musiq madaniyatimiz ravnaqining yetakchi ko‘makchilaridan biri sifatida muhim vazifani bajaradi.

Nota ijrochiligining yo‘lga qo‘yilganligi Respublikamizda musiq san’ati rivojlanishi, ko‘p ovoqli o‘zbek xalq cholg‘u orkestri, turli xil ansambllar, ijrochilik mahoratining o‘sishi musiq janrlarining kengayishi va rivojiga zamin yaratadi. Cholg‘ular takomillashuvi o‘zbek musiq ijrochilik madaniyati sohasini rivojlantirdi. Albatta, bunday cholg‘ulardan tuzilgan orkestr jamoalariga dirijyor va rahbarlar tayyorlash zarur bo‘lib qoldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. H.Rajabov “Orkestr sinfi”. Toshkent: “Musiq”, 2011.
2. F.N.Vasilev “Rubob darsligi”. Toshkent: O‘rta va oliy maktab, 1963.
3. Q.Usmonov “Boshlang‘ich rubob darsligi”. Toshkent: “O‘qituvchi”, 1975.
4. S.Taxalov “Afg‘on rubobini chalishga o‘rgatish metodikasi asoslari”. Toshkent: “O‘qituvchi”, 1983.
5. R.Qosimov “Rubob navolari” Toshkent: “O‘qituvchi”, 1993.